



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

**ONALIK VA BOLALIKNI MUHOFAZA QILISH DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR
CHORA-TADBIRLARI IJROSI: AMALIY NATIJALAR VA MAVJUD MUAMMOLAR
(JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991-1997-YILLAR)**

Bobobekova Nargiza Ismatullayevna
Qarshi davlat universiteti, doktorant

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida (1991-1997-yillar) onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilgan davlat siyosati va islohatlar, qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ularning aholi salomatligini muhofaza qilish, xususan onalar va bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ahamiyati tahlil etilgan. Arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari va statistik ma'lumotlar asosida sohada erishilgan yutuqlar, jumladan, tibbiy muassasalar tarmog'ining kengayishi, profilaktik tadbirlarning kuchaytirilishi va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatidagi o'zgarishlar o'rganilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy o'tish sharoitida yuzaga kelgan muammolar, moddiy-texnik ta'minot tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari mustaqillikning ilk yillarida onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasining rivojlanish xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: onalik va bolalikni muhofaza qilish, ona va bolalar salomatligi, profilaktika, tibbiy islohatlar, sog'liqni saqlash tizimi, sog'lom avlod, tibbiy xizmatlar, reproduktiv salomatlik, birinchi tibbiy xizmat.

**РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИОРИТЕТНЫХ МЕР ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ ПО ОХРАНЕ
МАТЕРИНСТВА И ДЕТСТВА: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И СУЩЕСТВУЮЩИЕ
ПРОБЛЕМЫ (НА ПРИМЕРЕ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ, 1991–1997 ГОДЫ)**

Бобобекова Наргиза Исмагуллаевна
Каршинский государственный университет, докторант

Аннотация

В данной научной статье анализируются государственная политика и реформы, реализованные в сфере охраны материнства и детства в первые годы независимости Узбекистана (1991–1997 гг.), а также принятые нормативно-правовые документы и их значение для защиты здоровья населения. Особое внимание уделено мерам по совершенствованию системы медицинского обслуживания матерей и детей, развитию учреждений здравоохранения и усилению профилактической работы. На основе архивных документов, материалов периодической печати и статистических данных исследованы достижения отрасли, включая расширение сети медицинских учреждений, повышение качества медицинских услуг и реализацию программ, направленных на формирование здорового поколения. Вместе с тем проанализированы проблемы материально-технического обеспечения, возникшие в условиях переходной экономики, и их влияние на развитие системы здравоохранения. Результаты исследования позволяют раскрыть особенности развития системы охраны материнства и детства в первые годы независимости страны.

Ключевые слова: охрана материнства и детства, здоровье матери и ребёнка, профилактика, медицинские реформы, система здравоохранения, здоровое поколение, медицинские услуги, репродуктивное здоровье, первичная медицинская помощь.

**IMPLEMENTATION OF PRIORITY MEASURES OF STATE POLICY ON THE
PROTECTION OF MOTHERHOOD AND CHILDHOOD: PRACTICAL RESULTS AND
EXISTING CHALLENGES (A CASE STUDY OF JIZZAKH REGION, 1991–1997)**

Bobobekova Nargiza Ismatullayevna
Karshi State University, Doctoral Student

Abstract

This scientific article examines the state policy and reforms implemented in the field of maternal and child health protection during the first years of Uzbekistan's independence (1991–1997), as well as the legal and regulatory documents adopted to improve public health protection. Particular attention is given to measures aimed at enhancing healthcare services for mothers and children, developing healthcare

institutions, and strengthening preventive care. Based on archival documents, periodical publications, and statistical data, the study analyzes achievements such as the expansion of medical institutions, improvements in the quality of healthcare services, and initiatives focused on promoting a healthy generation. At the same time, it investigates the material and technical challenges that emerged during the period of economic transition and their impact on the healthcare sector. The findings contribute to a better understanding of the development of maternal and child health protection policies in the early years of Uzbekistan's independence.

Keywords: maternal and child health protection, maternal and child health, prevention, healthcare reforms, healthcare system, healthy generation, medical services, reproductive health, primary healthcare.

Bugungi davrda onalik va bolalikni muhofaza qilish jamiyat taraqqiyoti, sog'lom avlodni voyaga yetkazish hamda millat genofondini asrashning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur masala nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy, demografik, pedagogik va huquqiy ahamiyatga ega bo'lib, ayol va bola salomatligini saqlash, ularning hayoti, rivojlanishi va ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan kompleks tizimni o'z ichiga oladi. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimi homiladorlikkacha bo'lgan tayyorgarlik, homiladorlik davridagi tibbiy kuzatuv, tug'ruq jarayonida malakali yordam ko'rsatish, tug'ruqdan keyingi parvarish, chaqaloq va bolalarning sog'lom o'sib-rivojlanishini ta'minlash kabi ketma-ket va uzluksiz bosqichlardan iborat. Ushbu bosqichlarning har biri ayol organizmining fiziologik holatini nazorat qilish, homila rivojlanishini kuzatish, tug'ma va orttirilgan kasalliklarning oldini olish, ona va bola hayotiga xavf tug'diruvchi omillarni erta aniqlash hamda ularni bartaraf etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, homilador ayollarni muntazam tibbiy ko'rikdan o'tkazish, ularga sog'lom ovqatlanish, mehnat va dam olish tartibiga rioya qilish, ruhiy-emotsional barqarorlikni saqlash bo'yicha maslahatlar berish onalikni muhofaza qilishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bolalikni muhofaza qilish esa bolaning tug'ilgan ilk kunlaridan boshlab emlash, to'g'ri ovqatlantirish, gigiyenik parvarish, jismoniy va psixik rivojlanishini nazorat qilish, maktabgacha va maktab davrida sog'lom turmush tarzini shakllantirish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Shu jihatdan, onalik va bolalikni muhofaza qilish davlat siyosatining muhim ijtimoiy yo'nalishi bo'lib, uning samaradorligi tibbiyot muassasalari, oila, ta'lim tashkilotlari va jamiyatning o'zaro hamkorligiga bog'liq. Mazkur tizimning izchil yo'lga qo'yilishi nafaqat ona va bola salomatligini mustahkamlashga, balki kelajak avlodning jismoniy, intellektual va ma'naviy jihatdan barkamol shakllanishiga xizmat qiladi. Ma'lumki, muhofaza qilish tizimi odatda uchta asosiy davrni o'z ichiga oladi:

Birinch davr — homiladorlikkacha bo'lgan davr.

Bu bosqichning asosiy maqsadi — sog'lom oila qurish va sog'lom farzand dunyoga kelishi uchun zamin yaratishdir. Bu davr ichiga nikohdan oldingi tibbiy ko'rik (bo'lajak kelin-kuyovlarning sog'lig'ini tekshirish, irsiy yoki surunkali kasalliklarni barvaqt aniqlash), rejalashtirilgan ota-onalik (ayol organizmini homiladorlikka tayyorlash, ya'ni sog'lom turmush tarzi, surunkali kasalliklarni davolash, foliy kislotasi va zarur vitaminlarni qabul qilish), reproduktiv salomatlik bo'yicha maslahatlar (oilani rejalashtirish, tug'ruqlar orasidagi intervalga (kamida 2–3 yil) amal qilish bo'yicha tushuntirish ishlari) kabi jarayonlar kiradi.

Ikkinchi davr — homiladorlik va tug'ruq davri.

Bu davrning o'zi ham ikki bosqichni qamrab oladi.

1. Homiladorlik davridagi muhofaza

Bu davr homiladorlik aniqlangan kundan boshlab tug'ruqqacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Shu boisdan ham eng murakkab, mas'uliyatli bosqichlar sirasiga kiradi. Ular quyidagilar:

- Erta hisobga turish. Bunda ayolning homiladorlikning dastlabki haftalaridayoq (12 haftagacha) poliklinika yoki qishloq oilaviy poliklinikasida ro'yxatga olinishi nazarda tutiladi;
- Muntazam skrining va tekshiruvlar jarayoni. Bunga asosan homilaning rivojlanishini kuzatish, tug'ma nuqsonlar va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash kiradi. Jumladan, UTT (ultratovush tekshiruvi) va biokimyoviy skrininglar asosida;
- Psixologik va jismoniy tayyorgarlik. Ayolni tug'ruq jarayoniga va bo'lajak onalikka ma'naviy hamda jismoniy jihatdan tayyorlash jarayonidir.

2. Tug'ruq davridagi muhofaza

Bu davr bevosita tug'ruqxonalarda amalga oshiriladigan, ona va bola hayoti uchun eng kritik bosqichdir. Ularga xavfsiz va malakali tug'ruq, ya'ni tug'ruq jarayonini tajribali shifokor-akusherlar nazoratida, zamonaviy tibbiy texnologiyalar yordamida xavfsiz o'tkazish kiradi.

3. Ixtisoslashtirilgan yordam

Buning ahamiyati shundaki, agar tug‘ruq jarayonida asoratlar kuzatilsa, ona va bolaga zudlik bilan reanimatsion va jarrohlik yordami ko‘rsatilishi zarur bo‘ladi. Masalan, kesarcha kesish amaliyotini misol qilish mumkin.

Uchinchi davr — bola tug‘ilgandan keyingi bosqich. Bu davr bola tug‘ilgandan keyingi dastlabki haftalar va oylarni o‘z ichiga oladi. Uning ilk bosqichi onani tiklash bosqichidir. Unda tug‘ruqdan keyingi asoratlar (qon ketish, infeksiyalar)ning oldini olish va ayolning jismoniy tiklanishini kuzatish kabi jarayonlar amalga oshiriladi. Keyingi bosqich chaqaloqlar skriningi hisoblanadi. Unda yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni tug‘ma va irsiy kasalliklarga (masalan, gipotireoz, fenilketonuriya) tekshirish nazarda tutiladi. Undan so‘ng patronaj tizimi nazarda tutiladi. Ya‘ni hamshira va shifokorlarning uyga borib, chaqaloqni parvarish qilish, onaga ko‘krak bilan emizish qoidalarini o‘rgatish bo‘yicha ko‘rsatmalar berishi kabi jarayonlarni olishimiz mumkin.

To‘rtinchi davr — bolalik davridagi muhofaza (pediatrik bosqich) hisoblanadi. U bola tug‘ilgandan boshlab voyaga yetguncha (18 yoshgacha) bo‘lgan davrni qamrab oladi. Xo‘sh, ularga nimalar kiradi?

Milliy emlash kalendari: yuqumli kasalliklarga (poliomiylit, qizamiq, gepatit va h.k.) qarshi rejali vaksinatsiya o‘tkazish.

Davriy tibbiy ko‘riklar: bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishini (bo‘yi, vazni, nutqi) muntazam baholab borish.

Maktab va bog‘cha yoshidagi nazorat: ta‘lim muassasalarida bolalarning sog‘lom ovqatlanishi, ko‘rish va qomat (skolioz) buzilishlarini nazorat qilish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish kabi masalalar kiradi.

TAHLI: ERISHILGAN NATIJALAR VA MAVJUD MUAMMOLAR

Shu boisdan ham mustaqillikning ilk yillaridan boshlab, xususan, 1991–1997-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilandi. Jumladan, 1991-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega edi [1;3-b.]. Bosh qomusimizda ham onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi kafolatlab qo‘yildi (65-modda) [2]. Shuningdek, onalar va bolalarni muhofaza qilish borasida chiqarilgan normativ hujjatlar orasida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1994-yil 16-iyundagi “Bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda bolali onalarga davlat yo‘li bilan madad berishni kuchaytirish, yosh avlodni tarbiyalash muammolarini hal etish, ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlash va bolalarni har tomonlama kamol toptirish maqsadida”gi farmoni muhim ahamiyatga ega bo‘ldi [3;25-v.]. “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonunda ham onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar keltirib o‘tilgan [4]. O‘z navbatida, ushbu huquqiy asoslar negizida onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog‘lom avlodni o‘stirish hamda yoshlar o‘rtasida tarbiyaviy-tushuntirish ishlariga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosi ta‘minlanib kelingan. Misol tariqasida:

- Ayollarning bolaga qarash uchun qisman oylik ish haqi saqlanadigan tug‘ruq ta‘tili muddati 3 yilga qadar uzaytirilgan;
- Homilador ayollarga dori-darmonlarni bepul berish tashkil etilgan [5;4-v.].

Bu borada Respublikamizning barcha viloyatlarida bo‘lgani kabi Jizzax viloyatida ham ko‘plab samarali amaliy ishlar olib borilgan. Natijada onalar va bolalar o‘limi ko‘rsatkichlari sezilarli darajada kamayishiga erishilgan. Jumladan, viloyatda 1992-yil 6 oy mobaynida onalar o‘limi ko‘rsatkichi har 100 000 tug‘ilganga 105,9 ni tashkil etgan bo‘lsa, 1993-yil 6 oy mobaynida 32,2 ni tashkil qilgan. Bolalar o‘limi esa 1992-yil 6 oy mobaynida 33,9 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 1993-yil 6 oy mobaynida 32,0 foizni tashkil etgan. Shuningdek, viloyatda bemorlarni, kamqonli, ko‘p bolali homilador ayollar va bir yoshgacha bo‘lgan bolalarni go‘sht bilan 86,2 foiz, sut va sut mahsulotlari bilan 83,4 foiz, sariyog‘ bilan 48,1 foiz, tuxum bilan 59,61 foiz, kartoshka bilan 73,2 foiz, sabzavotlar bilan 63,2 foiz, ho‘l mevalar bilan 29,3 foiz, baliq bilan 7,2 foiz ta‘minlashga erishilgan[6;47-v.].

Qabul qilingan Prezident farmonlari, qonunlar va qarorlar millat genofondini yaxshilash, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlashga xizmat qilgan perinatal va skrining markazlari faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, 1991-yilda Zomin rayonida 574 o‘rinli jumhuriyat ahamiyatidagi “Onalar va bolalar” sanatoriysi ishga tushirilishi ushbu davr nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega edi[7;3-b.]. Bu boradagi amaliy ishlar uzluksiz davom etib, aholi salomatligi yo‘lida foydalanishga topshirilib borildi. “Onalar va bolalarni muhofaza qilish viloyat markazi” 1992-yilda foydalanishga topshirilib, moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, kerakli tibbiy asbob-uskunalar va

jihozlar bilan ta'minlandi[8;311-v.].

Olib borilgan bu kabi ijobiy chora-tadbirlarga qaramay, viloyatning ba'zi tumanlarida muammolar yetarlicha saqlanib qolganligini manbalar ko'rsatadi. 1993-yil holatida ko'rib chiqsak, ushbu yilda, ayniqsa, Jizzax shahri, Baxmal, Zomin, Zarbdor va Jizzax tumanlarida onalar va bolalar o'limi yuqorilgicha qolgan[9;9-v.].

1993-yil Jizzax shahar davlat nazorati inspeksiyasi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining "Onalik va bolalikni muhofaza qilish to'g'risida"gi farmon va qarorlari ijrosini tekshirgan. Tekshiruv natijasiga ko'ra, shahar sog'liqni saqlash bo'limi, shahar ijtimoiy ta'minot bo'limi, ayollar tabobatxonasi, shahar bolalar va kattalar tabobatxonalarida ushbu farmon va qarorlari bo'yicha bir qancha amaliy ishlar bajarilmaganligi aniqlangan. Homilador ayollar, ikki yoshgacha bo'lgan bolalar, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar uchun ixtiyoji bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ro'yxati tasdiqlangan. Ammo shunday bo'lishiga qaramay bironta ayol yoki qariya o'ziga ajratilgan oziq-ovqat mahsulotini to'laligicha olmagan. Ayollar tabobatxonasi va boshqa tabobatxonalarda o'tkazilgan tekshirish natijalariga ko'ra, bepul oziq-ovqat mahsulotlariga chipta tarqatish yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Ko'plab ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalardagi onalar chiptasiz qolganligi arxiv materiallarida keltirib o'tilgan. 1993-yilning mart-aprel oylarida bepul oziq-ovqat chiptasi umuman tarqatilmagan. Tabobatxonalarda farzand ko'rishi mumkin bo'lgan har bir ayolga kartochka ochilgan va homiladorlik mumkin bo'lmagan ayollar hisobga olib qo'yilgan. Bunday ayollarning barchasi turar joylardagi tabobatxonalarda davolanganlar. Ammo ayollar homiladorlikning birinchi oylarida foydali ovqatlar bilan to'liq ovqatlanmaganliklari bois to'liq davo topmaganlar. Natijada bolalar o'rtasida o'lim kamayish o'rniga oshgan. Misol uchun, 1992-yilning birinchi yarim yilida 279 bola o'lgan bo'lsa, 1993-yilning birinchi yarim yilida 323 bola yoki 44 nafar bola ko'p o'lgan. Tug'ilish esa shu muddatga 160 ta kam bo'lgan[10;80-v.].

1996-yil viloyatda tug'ish yoshidagi ayollarning soni 179064 nafarni tashkil etgan. Shu davrda viloyatimizdagi tug'ruqxonalarning umumiy ahvoliga kelsak, viloyat tumanlaridagi markaziy shifoxonalar qoshida bo'limlari, Ulyanova (hozirgi Dashtobod) shahrida bo'lim hamda viloyatda ko'p qirrali kasalxonada tug'ruqxona bo'limi va "viloyat onalar va bolalarni muhofaza qilish markazi mavjud bo'lgan.(To'g'ri bu 1991-yilgi holatdan ancha yaxshi holatga o'tilganligidan dalolat beradi. Misol uchun, 1991-yilda viloyatda birorta ham zamonaviy tug'ruqxona yo'qligi, onalar va bolalar muhofazasining deyarli yo'qligi, ular orasida o'lim sonining ko'pligi, ayniqsa bu borada tumanlar ichida Oktyabr (hozirda Zafarobod), Mirzacho'l, G'allaorol rayonlarida holat ancha yomonligi, bepul oziq-ovqat tarqatish izchil yo'lga qo'yilmaganligi gazeta manbalarida uchraydi[11;5-b.]). Barcha tug'ruqxonalar bir necha bo'limlardan iborat bo'lib, tug'ruqgacha tayyorlash bo'limi, I, II tug'ruq bo'limlari, chaqaloqlar bo'limlari hamda tug'ruqdan keyin reabilitatsiya bo'limlaridan iboratdir. Respublika sog'liqni saqlash Vazirligi 1995-yil mart oyida chiqargan 155-sonli buyrug'i asosida 1995-yilda barcha tug'ruqxonalar reorganizatsiya bo'ldi hamda tug'adigan ayollar uchun ancha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Bu tug'ruqgacha bo'limlarning tashkil bo'lishi, bir sutkada bitta tug'ruq, ya'ni bitta ayol tug'ishi, tug'ruqdan keyin sog'liqni saqlash bo'limi, ona bilan bola birga yotadigan xonalar, tug'ilishi bilan 15-30 daqiqada bolasini emizish masalalari yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birgalikda 1996-yilda ham bozor iqtisodiyoti sharoiti sabab ba'zi muammolar saqlanib qolgan bo'lib, jumladan, qattiq va yumshoq jihozlarning yetishmovchiligi, zamonaviy diagnostik apparatlarning yo'qligi, dori-darmonlarning tanqisligi kabilarni keltirib o'tish mumkin[12;29-v.].

Albatta, bu kabi muammolar bevosita mustaqillikning ilk yillarida kuzatilgan iqtisodiy beqarorliklar natijasida yuzaga kelganligi sir emas. Ammo bu kabi muammolarga yechim izlangan, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va xalqaro hamkorliklar yo'lga qo'yilgan. Masalan, 1996-yilda Jizzax viloyati bolalar ko'p tarmoqli shifoxonasida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya fondi hamda Germaniyaning "Friedensdorf International" xalqaro tashkiloti hamkorligida bolalar uchun tibbiy ko'rik tashkil etilgan [13; 4-b.].

O'zbekiston mustaqilligining ilk yillarida, iqtisodiy jihatdan murakkab davr bo'lishiga qaramay, sog'liqni saqlash tizimi xodimlari fidokorona mehnat qilib, soha rivojiga hamda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish ishlariga munosib hissa qo'shdilar. Ular o'z mehnatlari bilan xalq orasida hurmat va e'tibor qozondilar. Ana shunday fidoyi tibbiyot xodimlari orasida xotin-qizlar ham salmoqli o'rin egallagan. Jumladan, viloyat shifoxonasi LOR bo'limi mudirasi, shifokor Karimova X.K., viloyat shifoxonasining nevropatolog shifokori Nabiulina K.S., viloyat psixonevrologiya dispanserining bosh shifokori Mavlyanova X.A. [14; 149-v.], Viloyat yosh bolalar shifoxonasining bosh shifokori Alimova

Xolida Raupovna [15; 17-v.] kabi mutaxassislarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda onalik va bolalikni muhofaza qilish davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Mavjud sog'liqni saqlash tizimini milliy taraqqiyot talablari asosida qayta tashkil etish, aholini, ayniqsa, onalar va bolalarni sifatli tibbiy xizmat bilan ta'minlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu davrda normativ-huquqiy asoslar yaratildi hamda ona va bola salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan davlat dasturlari ishlab chiqildi. Olib borilgan islohotlar natijasida tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining samaradorligi oshdi, aholining ijtimoiy himoyasi mustahkamlandi va sohani modernizatsiya qilish uchun zarur poydevor yaratildi. Shu bois 1991–1997-yillar onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimining milliy modelini shakllantirish hamda uning keyingi taraqqiyoti uchun muhim tarixiy bosqich sifatida alohida ahamiyat kasb etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M. Sodiqov. O'zbekiston vrachlar assotsiatsiyasi Jizzax viloyat bo'limi 30 yoshda. – Jizzax, 2022-y. – 3-b.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 08.12.1992-y. <https://lex.uz/docs/-20596>. (Hujjat yangi tahrirda qabul qilingan).
3. Jizzax viloyat arxivi. Fond M-0314, ro'yxat-1, yig'ma jild-419, 25-varaq.
4. "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonun. 265-I-son. 14.09.1996-y. <https://lex.uz/uz/docs/-26013>.
5. Jizzax viloyat arxivi. Fond M-0314, ro'yxat-1, yig'ma jild-428, 4-varaq.
6. Jizzax viloyat arxivi. Fond M-0314, ro'yxat-1, yig'ma jild-208, 47-varaq.
7. Subhonqulov I. (viloyat sog'liqni saqlash bo'limi mudiri). Xalqimiz sog' bo'lsin // Jizzax haqiqati, Jizzax shifokori xabarnomasi. – 25.05.1991-yil. – № 63-son (2870). – 3-b.
8. Jizzax viloyat arxivi. Fond M-0314, ro'yxat-1, yig'ma jild-22, 311-varaq.
9. Jizzax viloyat arxivi. Fond M-0314, ro'yxat-1, yig'ma jild-148, 9-varaq.
10. Jizzax viloyat arxivi. Fond M-0314, ro'yxat-1, yig'ma jild-201, 80-varaq.
11. Ibrohim D. Tibbiy xizmat yaxshilansin // Jizzax haqiqati. – 04.06.1991-yil. – № 67-son (2074). – 5-b.
12. Jizzax viloyat arxivi. Fond M-0314, ro'yxat-1, yig'ma jild-515, 29-varaq.
13. M. Sodiqov. O'zbekiston vrachlar assotsiatsiyasi Jizzax viloyat bo'limi 30 yoshda. – Jizzax, 2022-y. – 4-b.
14. Jizzax viloyat arxivi. Fond M-0314, ro'yxat-1, yig'ma jild-19, 149-varaq.
15. Jizzax viloyat arxivi. Fond M-0314, ro'yxat-1, yig'ma jild-67, 17-varaq.